

«ХУДУДНИЙ ЭЛЕКТР ТАРМОКЛАРИ» АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИАТИ
«АНДЕЖОН ХУДУДИЙ ЭЛЕКТР ТАРМОКЛАРИ КОРХОНАСИ»
АКЦИЯДОРЛИК ЖАМИАТИ

Шоаиқури

ЭЛЕКТР ТАЪМИНОТИ КОРХОНАСИ



Hududiy

Elektr

Tarmoqlari

БЮДЖЕТ ИСТЕЪМОЧИЛАРИ УЧУН ЭЛЕКТР ЭНЕРГИЯСИ
ТАЪМИНОТИ

ШАРТНОМАСИ

№ 150128/5

Шоаиқури ХТБ

(КОРАМВА, ТИШКЕЛЕТ НОМИ)

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA**

№ JY60682477

1. Loyihaning turi

Shartnoma

2. Loyihaning nomi

Oldi-sotdi shartnomasi

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot

Baliqchi tuman Xalq ta'limi bo'limi tomonidan 21.01.2022

4. Mas'ul ijrochi

Baliqchi tuman adliya bo'limi huzuridagi davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatish markaziga 2022-yil 21-yanvar kuni "E-Huquqshunos" elektron tizimi orqali Baliqchi tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan elektr-energiyasi yetkazib berish to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasi loyihasi ekspertizadan o'tkazish va xulosa berishlik uchun kelib tushgan. Shartnomani o'rganish davomida quyidagilar aniqlandi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxatining 5-bandiga asosan boshqa yetkazib beruvchi tomonidan xizmat ko'rsatish imkoniyati bo'lmagan taqdirda to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinishi belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021-yildagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni 71-moddasida yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritilgan yagona yetkazib beruvchi bilan davlat xaridini amalga oshirish uchun ruxsat etilgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladi deb belgilangan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010-yil 11-oktyabrda 2147-son bilan ro'yxatga olingan Tabiiy monopoliya subyektlarining Davlat reyestrini tuzish va yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomga asosan 2021-yil 1-sentyabr holatiga shakllantirilgan Tabiiy monopoliya subyektlarining Davlat reyestrda Elektr energiyasini transportirovka qilish xizmati "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJ va uning tizimidagi 14 ta hududiy elektr tarmoqlari korxonalari tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra

XULOSA QILAMAN:

Baliqchi tuman xalq ta'limi bo'limi tomonidan elektr-energiyasi yetkazib berish to'g'risidagi oldi-sotdi shartnomasi loyihasi Fuqorolik Kodeksi 2-qismining 6-paragraf Energiya ta'minoti shartnomasi, Fuqarolik Kodeksi 38-bob Haq evaziga hizmat ko'rsatish, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3953-son qarori bilan tasdiqlangan Davlat buyurtmachilari tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) ro'yxati, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son Qarorining 10-13-moddalari hamda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunning 71-moddasida talablariga muvofiqligi inobatga olinsin.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

24.01.2022

**Yuridik xizmat ko'rsatish
markazi boshlig'i :**



J.Nazarov